



Received: February 10, 2023
Accepted: March 23, 2023
Available online: March 25, 2023

Dilfuzaxon Saidqodirova

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent, O'zbekiston

Dilfuzakhon Saidkodirova

Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD),
Associate Professor, Uzbekistan State
World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: disuper@mail.ru

KOMPYUTER VA INTERNET TERMINLARINI ME'YORLASHTIRISH MASALASI

ANNOTATSIYA

Ilmiy-texnik taraqqiyot davrida tilning leksik jihati bilan jamiyat faoliyati orasida bog'liqlik namoyon bo'ladi. Terminologiya tilshunoslikning boshqa yo'nalishlari kabi tilda mavjud bo'lgan eng dolzarb masalalar tadqiqi bilan shug'ullanadi. Terminologik leksika umumadabiy tilga singib boradi, shu bilan birga umum qabul qilingan leksikaning terminlashuvi jarayoni sodir bo'ladi.

Axborot texnologiyalari rivojlanishining zamonaviy darajasi shundan iboratki, respublikada jahon axborot makonining infratuzilmalari va axborot-hisoblash tarmog'i integratsiyasiga mos keluvchi milliy tizimni yaratish kabi muammolari ancha murakkab va ayni paytda respublikamiz ilmfan taraqqiyoti uchun dolzarb masalalar qatoriga kiradi. Kompyuter va internet terminologiyasini o'rganish zarurati global tarmoqning dunyo mamlakatlari, turli xalqlar ijtimoiy hayotida muhim ahamiyat kasb etishi bilan asoslanadi.

So'zlar dunyoning predmet va hodisalarini mantiqan umumlashtiradi, lekin bu daraja atamalardan farq qiladi. So'zning talqini va atama definitsiyasini solishtirish ham bu holatni tasdiqlaydi. Ko'pgina tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, aynan definitsiya lisoniy birlikning terminga aylanishining rasmiy ko'rsatkichidir. Termin ta'rifi matni ma'lumotlarning boyligi va uslubiy neytrallik, ixchamlik, ma'lum bir tematik sohaga xos xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Termining definitsiyasida maxsus bilimlar qo'llaniladi, so'zni talqin qilishda esa har qanday ona tilida so'zlashuvchiga tushunarli bo'lgan bilim ishlatiladi. Ushbu muammo kompyuter va internet sohasidagi tushunish

ON ISSUES OF COMPUTER AND INTERNET TERMS STANDARDIZATION

ANNOTATION

In the course of scientific and technological development, the vocabulary of the language has been constantly changing in line with the activities of peoples. Thus, the appearance of new terminology, like dozens of new words in other branches of linguistics, encourages the researches to deal with the study of the most pressing problems of languages. Terminological vocabulary is absorbed by the general literary language, while the process of transforming some generally accepted words into terms has been still taking place in languages.

The challenges of creating a national information system that is compatible with the infrastructures of the global information space and integrating the country's national information and computing network into the global one are both quite complicated and at the same time rank among the most urgent issues for our republic. Thanks to the significance of the international network in the public lives of countries and peoples, and its practical implications are crucial, it is necessary to study computer and Internet vocabulary. Words logically generalize the events that happen in the world, but their generalization in different languages is not the same, to a certain extent, since the comparison shows the difference between the word's basic meaning and some of its obtained definitions.

According to many researches, the definition serves as the official marker of a linguistic element's conversion into a term. The definition of the term's content is distinguished by richness of its information, methodological neutrality, concision, and distinctive characteristics of a

va ishlatish jarayonini yengillashtirish uchun olingan terminlarning semantik modifikatsiyasini tahlil qilishning asosini tashkil etdi. Semantik modifikatsiyalar masalasi hozirgi paytda hal qilinmagan, zamonaviy tilshunoslikda yetarlicha o'rganilmagan masalalardan biri bo'lib, tadqiqotchilarning asosiy vazifasi terminlarning murakkab tizimini ishlab chiqish, konversiyalar, ularning xususiyatlariga ko'ra tasniflashdir. Ma'lumki, virtual muhitda anonimlik, gipermatnlilik kabi belgilar terminlarni yasashida asosiy manba bo'lib xizmat qilishi, internet terminlarining qayta nominatsiyalash yangi tushunchalarni paydo bo'lishi uchun asos sifatida xizmat qiladi.

Internet terminologiyasini o'rganish zarurati global tarmoqning jahon mamlakatlari, turli xalqlar ijtimoiy hayotida muhim ahamiyat kasb etishi va uning amaliy ahamiyati bilan asoslanadi. Kompyuter va internet terminlarining nazariy asoslarini belgilash, uning o'ziga xos shakllanish tamoyillarini yoritishdan avval umuman termin hamda terminologiya nazariyasi sohasida amalga oshirilgan ilmiy ishlarni o'rganish, mazkur tushunchalarni ta'riflash va tavsiflash bo'yicha yondashuvlarga diqqatni qaratish maqsadga muvofiq. Tilshunoslikda tushunchalarni nomlash muayyan qonuniyatlarga amal qilar ekan, bu qonuniyatlarning eng muhimi biror narsa yoki hodisaga berilayotgan nomning, o'sha obyektning xususiyatiga mos tushishi, ya'ni narsa va hodisa haqidagi tushunchaning til belgisida mustahkamlanishi sanaladi.

Ushbu maqolada axborot texnologiyalarining takomillashuvi hamda tarmoqlar sonining ortib borishi adabiy tilda yangidan-yangi sohaviy nomlarining paydo bo'lishi mazkur tilda terminlarning ko'payishiga olib kelayotganligi tahlilga tortilgan mavzu bo'lib, bu o'z o'rnida o'zbek milliy til tizimini sohaviy terminlar orqali boyishiga ijobiy ta'sir o'tkazayotganligini yoritib bergan.

Kalit so'zlar: texnologiya, tarmoq, kompyuter, internet, lingvistik xususiyat, elektron sahifa, elektron pochta, telekonferentsiya, fayllarni uzatish, domen nomlari.

certain topic area. Special knowledge is needed to define the term, and to interpret the word to be understandable to any native speaker. This issue served as the foundation for several investigations of terminology that had been modified semantically to make them easier to understand and use in the context of computers and the Internet. Semantic alterations are one of the unresolved, under-researched problems in contemporary linguistics. The primary objective of our research is to create a complex system of conversion terminology and classify it based on characteristics. It is well recognized that in a virtual environment, characteristics like anonymity and hyper-textuality serve as the primary inspiration for the creation of terms, and the re-use of Internet slang forms the foundation for the emergence of new concepts.

The need to understand Internet terminology is thanks to the prominence of the global network in the public life of countries and peoples and its practical significance. Before defining the theoretical foundations of computer and Internet terms, having clarified the principles of their specific formation, it is advisable to study the scientific work performed in the field of term theory and terminology in general, paying special attention to approaches to the definition and description of these concepts. The most significant of these principles, which govern the naming of concepts in linguistics, is that any object's name must match its qualities; in other words, the concept of objects and occurrences must be fixed in a linguistic sign.

We hope that this analysis of the topics on improving information technology and expanding the number of networks, the emergence of new industry will bring new words into the national literary language, promoting an appearance of new terms in the language, and this, in turn, will have a positive effect on the enrichment of the Uzbek national language system through terms in new industry.

Key words: technology, network, computer, Internet, linguistic feature, electronic page, email, teleconferencing, file transfer, domain names.

KIRISH

Kompyuter va internet sohaviy terminologiyasi tadqiq darajasining eng muhim jihati – nominatsiya masalasidir. Bu kompyuter va internet sohaviy termini doimiy ravishda kengayishi va o'z aksini terminologik tizimda mutlaqo yangi tushuncha va

realiyalarning paydo bo'lishi bilan bog'liq hodisadir. Zero, fan va texnika sohasidagi jadallashuv ta'sirida terminologiya o'zaro aloqador ikki qonuniyat asosida: birinchidan, ilmiy-texnik taraqqiyot qonuniyatlari, ikkinchidan, til rivojlanishining umumiy qonuniyatlari bilan bog'liq ravishda o'zgarib bormoqda.

Darhaqiqat, olimlarning tadqiqotlarida sohaviy terminlarni yaratish va maxsus bilimlarni shakllantirish, saqlash va uzatish aniq bir maqsadga qaratilgan nominativ faoliyat sifatida o'rganilmoqda. Darhaqiqat, tilshunoslikda terminlarning o'zgarishi hamda yangi terminlarning paydo bo'lishi fan va texnika taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq ekanligiga alohida e'tibor berilmoqda.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, termin maxsus tushuncha haqidagi axborot tashuvchisi va o'z o'rnida ilmiy bilimlarni rivojlanishining asosi bo'lgan sohaviy hamda ilmiy kommunikatsiyaning eng muhim tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi. Terminologik nominatsiyalash – tafakkur vositachiligida davom etadigan, lisoniy nomlash bilan uzviy bog'liq bo'lgan hamda kishilarning bilish faoliyati va uning mahsuli ya'ni natijalarini lisoniy ifodalashga bog'liq bo'lgan maxsus tushunchalarni nomlash jarayonidir.

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida "...tilshunoslikda funksional-genetik jihatdan ikkita nominatsiya tushunchasi mavjud bo'lib, birinchi nominatsiya voqelikdan predmetga biror leksik birlik orqali nom beriladi. Bunda predmetning nomi bo'lgan leksik birlik birinchi marta nomlash funksiyasiga jalb etiladi. Lekin tilda aksariyat hollarda nom berish ehtiyoji tug'ilgan yangi predmetga ham, avvaldan, biror predmetning nomi bo'lgan leksik birlikdan foydalaniladi. Natijada, bu nom boshqa bir predmet nomi funksiyasini ham bajaraveradi. Ikkinchi nominatsiya esa umumiste'moldagi so'zlardan leksik-semantik usul bilan termin yasalishiga bevosita aloqadordir" ekanligi qayd etilgan.

Aytish joizki, nominatsiyalash, ya'ni nomlash jarayoni bu mantiqshunos, psixolog, tilshunos olimlar shug'ullanadigan murakkab, kompleks, ko'p qirrali jarayondir.

Nominatsiya borasida turli nazariy yondashuvlarning mavjudligi quyidagi turli omillar: birinchidan, tadqiqotning turli maqsadlari, turli qiziqish doiralari, zamon ruhi; ikkinchidan, fanda uchraydigan subyektiv nuqtai nazarlar bilan izohlanishi mumkin. Zero, sohaviy terminlar nominatsiyasi har qanday sohaga oid tushuncha o'zining nominatsiyasidan avval paydo bo'lishi fanda allaqachon o'z isbotini topgan. Tilshunoslikda nominatsiya hodisasining eng asosiy mohiyati uning biror bir lisoniy belgi orqali nomni ifodalamasligida, u qandaydir bir mavhumlikni insonning bilish faoliyatining natijasi sifatida talqin etadi.

ASOSIY QISM

Tilshunoslikda so'zlarning nominatsiya borasidagi fikrlariga murojaat qilamiz. Shuni alohida qayd etish joizki, muayyan tilda kishilarning o'zaro muloqot jarayonida ishtirok etayotgan har bir so'zning paydo bo'lishi nominatsiya (nomlash, nom berish) masalasi bilan bevosita bog'liqdir. Demak, nominatsiya tilning kommunikativ funksiyasining mahsuli hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida, umumiste'moldagi

leksemalardan, ularning semantikasini o'zgartirish bilan termin hosil qilish mexanizmining yuzaga chiqishiga ko'maklashadi.

V.N. Teliyaning nominatsiya nazariyasi bo'yicha bu tushuncha birinchi navbatda, fikrlashning kontseptual shakllari bir-biri bilan qanday bog'liqligini, obyektiv voqelikning turli qismlari uchun nomlar qanday yaratilganligi, mustahkamlanganligi va taqsimlanganligini aniqlash bilan bog'liq holda o'rganilsa, ikkinchi navbatda, paradigmatic munosabatlar darajasida tahlil qilinadi. Falsafiy nuqtai nazardan nominatsiya – so'z, narsa va tushuncha o'rtasidagi turli xil munosabatlarni tadqiq etadi.

Albatta, nominatsiya borasidagi har qanday nazariyaning paydo bo'lishi Praga lingvistik maktabi tasavvurlari bilan bog'liq. Ular tilni ma'lum bir maqsadga xizmat qiluvchi belgilar tizimi sifatida ko'rar ekanlar, terminlarni ham sohaviy muloqotda ma'lum maqsadga yo'naltirilganligi va unda nominatsiya xususiyatlarini tadqiqi muhim ekanligini ta'kidlaydilar.

X.D. Paluanova nominatsiya – nafaqat belgilash va kommunikatsiya jarayoni, balki yana o'rganish jarayonidir va “til shaklida ifodalangan ma'lumotni to'g'ri yetkazish” nomlash usuliga bog'liq bo'ladi deb hisoblasa, L.K. Zolyan tilda leksikaning mohiyati xususida fikr yuritir ekan, nominatsiya borasida quyidagicha tavsif keltiradi: “Nominatsiya nazariyasining vujudga kelishi faqat umumlisoniy belgilashni o'rganish doirasida erishilgan yutuqlarni hisobga olgan holda mumkin bo'ladi”.

Darhaqiqat, tafakkurning nominativ mexanizmlari assotsiativ tabiatga ega bo'lib, bir-biriga bog'liq bo'lmagan, lekin bir-biriga o'xshash xususiyatlarga ega bo'lgan obyektiv voqelik elementlarini birlashtiradi. Aytish joizki, nominatsiya fenomeni mazmunan ko'p qirrali bo'lib, shu sababli tilshunoslar tomonidan bu jarayonga katta qiziqish bildiriladi. Qolaversa, nominatsiya muammosi, uning uslub va vazifalari tadqiqan ko'rib va ishlab chiqilgan bo'lsa-da, avvalgidek tilshunoslar, adabiyotshunoslar, faylasuflar, psixologlar va boshqalarning e'tiborini tortmoqda. Zero, “... nominatsiya til tizimida alohida o'rin egallaydi, chunki ular til aloqasi subyekti bo'lgan predmetni, tushunchani qolaversa shaxsni ham nomlaydi. Nominatsiya nafaqat kontseptual, balki dunyoning lingvistik modelida ham asosiy va barchasini qamrab oluvchi tushunchadir”.

V.V. Vinogradov: “So'z nominativ yoki definitive funksiyani bajaradi, ya'ni aniq belgilash vositasi bo'ladi va bunda u oddiy belgi yoki mantiqiy belgilash vazifasini bajaradi, shunda u ilmiy termin hisoblanadi” deb ta'kidlaydi. Albatta, terminologik nominatsiyaning asosiy tamoyillari ko'p jihatdan til nominatsiyasiga mos keladi.

Rus olimi V.G. Gak nominatsiya mazkur til yoki narsaga nisbatan butunlay erkin, asossiz hodisa sifatida ko'rib chiqila olmaydi degan xulosaga tayanadi. Bundan tashqari, nomni yaratish imkoniyati ma'lum bir so'zlar va shakllar, shu jumladan, ularning ma'nolari mavjudligiga bog'liq, uning asosiga esa haqiqatdan ham mavjud bo'lgan yoki subyekt tomonidan mazkur obyektga ko'rib, aniqlangan belgi (ichki shakl) qo'yiladi, deb hisoblaydi. Olim nominatsiyaga to'xtalib, “erkinlik til tomonidan taqdim etilgan vositalar va obyektga ta'riflaydigan xususiyatlar doirasida tanlash imkoniyatida namoyon bo'ladi” deb ko'rsatadi. Bu fikrni G.V. Kolshanskiy

ham qo‘llab-quvvatlaydi: “Nominatsiyada harakatining mohiyati narsa va uning nomi, hodisa va uning belgisi, ong tuzilishi va uning obyekti orasidagi aloqada aks ettirishida nom tanlash muhimdir. Zero, nominatsiya harakati bu nutqiy fikrlashdir. Ko‘rib turganimizdek, “Nominatsiyalash” umumiy ma’noda ikki talqinga ega bo‘lishi to‘g‘risidagi xulosalar ahamiyatli ko‘rinadi. Bu talqinlar nomlashning ham jarayoni, ham natijasi bo‘lib bunda lisoniy unsurlar ularning yordamida belgilangan obyektlar bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladi. Darhaqiqat, nominatsiyalash harakati jarayonida turli tabiatga ega bo‘lgan uch kategoriya – voqelik unsuri, uning inson ongida mavjud bo‘lgan aqliy shakli va ushbu shaklni til tizimida qayd etadigan lug‘aviy birlik orasida aloqa o‘rnatiladi.

V.N. Arutyunyan “asosiysi bu tadqiq qilinadigan hodisalarning o‘zgarishi, uning har bir yangi (yoki yangilangan) halqasi tadqiqotchini oldindan mavjud bo‘lgan yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish kerakligi haqidagi fikrga olib keladigan til tizimini murakkablashib boyishi” deb hisoblaydi.

G.V. Kolshanskiy ham nominatsiya borasida fikr yuritar ekan, agar so‘zning maqsadli yo‘nalishi amalga oshirilgani ayon bo‘lsagina bu haqda so‘z yuritish mumkinligini qayd etadi. Shu munosabat bilan olim nominatsiyaning asosiy uch turini ajratib ko‘rsatadi:

- leksik (so‘z va ibora orqali),
- propozitiv (jumla orqali);
- diskursiv (matn orqali).

V.G. Gak nominatsiyaning uch tarkibiy qismlarini ajratib ko‘rsatgan va ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- 1) obyektni belgilaydigan subyektning aqliy mehnati;
- 2) nominatsiyalash (nomlash) uchun ishlatiladigan vositalar, ya’ni nom berayotgan subyektning ixtiyorida bo‘lgan lisoniy vositalar;
- 3) nominatsiyalashning (nomlashning) predmeti, ya’ni o‘sha nom olayotgan ekstralingvistik obyekt.

M.V. Kurgalina nominatsiya jarayonini amalga oshishida zaruriy shartlarni kerak deb hisoblab, quyidagi asosiy belgilarini ko‘rsatib o‘tgan:

- 1) nominatsiyalash subyektida kommunikativ intentsiyaning mavjudligi;
- 2) nominatsiyalash subyektning aqliy mehnati (kognitiv mexanizmlarni aktivatsiyalash);
- 3) nominatsiyalash jarayoni natijasining moddiy timsoli sifatida chiqayotgan lisoniy vositalar.

Nominatsiyalash – ko‘p ma’noli termin. Quyidagi tushunchalar unga tegishli bo‘lgan ma’nolarni ochib berishi mumkin:

- 1) nomlash jarayoni;
- 2) bevosita nomning o‘zi (ya’ni ushbu jarayonning natijasi);
- 3) tilshunoslikda nomlash harakatlarining tarkibi va shu hodisani o‘rganadigan sohasi.

“Nominatsiya” insonning bilish faoliyatining alohida turini ta’riflash, ham falsafa, psixologiya, tilshunoslik, semiotika singari ijtimoiy fanlarning, ya’ni ilmiy-

tadqiqot obyektlari orasida nominatsiyalashni insonni bilish faoliyatining alohida turi sifatida o'rganadigan gumanitar fanlarning doirasi bilan bog'lashadi.

Alohida aytish joizki, nominatsiya jarayonini tadqiq etishning tayanch nuqtasi – zamonaviy tillarda kamdan kam uchraydigan hodisa bo'lgan va birlamchi deb ataladigan nominatsiyadir, chunki bugungi kunda tillar o'zlashtirmalar va nominatsiyalash harakatida tilda avvaldan mavjud bo'lgan birlikning fonetik turini yangi narsa yoki hodisa uchun nom sifatida ishlatilishini ifodalaydigan ikkilamchi nominatsiya orqali to'ldiriladi.

Y.S. Stepanov "... nominatsiyalash deganda, obyektini maxsus moslashtirilgan so'zlar – ya'ni birliklar orqali emas, balki iboralar, jumlarlar, butun batafsil tavsiflar orqali nomlash" deya ta'rif beradi. A.A. Reformatskiy bu masalaga o'zining munosabatini bildirib, bu ikki tushunchani sinonim deb atashga qarshi chiqadi. Uning ta'kidlashicha, geografik tushunchani ifodalovchi "dengiz", "daryo", "tog'", "shahar" kabilar geografik termin, "Kaspiy", "Volga", "Pomir", "Moskva" kabi so'zlar esa geografik nomenklatura hisoblanadi.

Nomlash muayyan qonuniyatlarga amal qilar ekan, ularning eng muhimi biror narsa yoki hodisaga berilayotgan nomning, o'sha obyektning xususiyatiga mos tushishi, ya'ni narsa va hodisa haqidagi tushunchaning til belgisida mustahkamlanishi sanaladi. Mana shu holat nominatsiya deb yuritiladi.

Nomlash, ya'ni nominatsiya haqida gap ketganida, ko'p hollarda faqat bir o'zakli so'zlar yoki yasama so'zlar tilga olinadi, "... biroq nominatsiyaning umumiy kategoriyasida uchta usulning ko'rinishi mavjud: leksika va so'z birikmasi orqali nomlash (leksik nominatsiya), gap orqali nomlash (propozitiv nominatsiya) va matn orqali ifodalash (diskursiv nominatsiya)". Shu bois, so'z hosil qilish jarayonida so'z yasaliş strukturasi ana shu uzviy (motivlovchi // yasovchi asos) va uning imkoniyatlari ham hisobga olinishi kerakligi e'tirof etiladi. Darhaqiqat, leksika ya'ni so'z maxsus tushunchani nomlaydi. Nominativ funksiya ko'pgina mustaqil ma'noli so'zlarga xos. Har qanday tushunchaning lisoniy funksiyasini nomlash vazifasi sifatida ta'riflash mumkin: predmetlar, voqelik hodisalari va h.k.lar va ular to'g'risidagi tushunchalar nomlanadi.

Ma'lumki, so'zlar (yoki til belgilari) – atrofda voqelik haqidagi ma'lumotlarni olish, saqlash va ko'paytirish vositalaridir. Sintaksisdagi nominatsiya jarayoni, okkazional so'z yasash konstruksiyalari, shuningdek, ko'pgina murakkab so'zlarga xos obrazlilik katta pragmatik imkoniyatlar eshigini ochadi. So'z qo'shish ko'pincha butun boshli vaziyatni ifodalash vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, nominatsiya – nafaqat belgilash va kommunikatsiya jarayoni, balki yana o'rganish jarayonidir va "til shaklida ifodalangan ma'lumotni to'g'ri yetkazish" nomlash usuliga bog'liq bo'ladi.

Umuman olganda, nominatsiya tildan tashqari voqelik faktlarining tafakkur vositasida til belgilariga aylantirish insonlarning jamiyatda, ularning dunyodagi faoliyati orqali yaratilgan yoki kashf etilgan predmet, tushunchalarning "belgi – shakl" xususiyatlarini ifodalaydi. Ularning ma'no markazida tayyor so'z joylashgan deb hisoblansa, yangi nomlarni shu jumladan, tilda mavjud so'zlar negizida hosil

qilish qonuniyat sifatida qaraladi. Aytish joizki, nomlash birligi sifatida “so‘z” aloqani ta‘minlash vazifasiga bo‘ysungan. Nomlash akti esa o‘z o‘rnida faoliyat toifasi va nutq faoliyati bilan bevosita bog‘liq.

Terminga aylanayotgan umumadabiy tildagi so‘zlar faqat muayyan terminologik maydondagina termin bo‘lib kela oladi. Terminologik maydondan tashqarida ular terminlik xususiyatini yo‘qotadi.

Ingliz tilida sodda tub terminlarga umumiste‘moldagi so‘zlardan shakllangan terminlarni kiritish mumkin: *delay* – *kechikish*, *interruption* – *uzilish*, *conversion* – *o‘zgartirish*, *borrowing* – *o‘zlashtirish*, *jitter* – *titrash*, *slowdown* – *sekinlashuv*, *offset* – *siljish*, *relationship* – *munosabat*, *surge* – *sakrash*, *shuffle* – *aralashtirish*, *transition* – *o‘tish*, *noise* – *shovqin*, *absorption* – *yutilish*, *visit* – *tashrif*, *leakage* – *sizish*, *click-chertish*, *threat* – *tahdid* va h.k.z.

Masalan, o‘zbek tilidagi umumistemoldagi hisob termini onlayn xizmat sotuvchisi tomonidan foydalaniladigan yozuvlarni saqlash tartibi tushunchasini anglatadi. Ba’zi terminlar terminologik tizimda sodda tub turli ma’nolarni anglatishi mumkin.

Ingliz tili kabi o‘zbek tilida ham umumiste‘mol so‘zlaridan termin hosil qilinishini kuzatish mumkin va ularni sodda tub terminlar qatoriga qo‘shish mumkin: Masalan, ingliz tilidagi *calendar* termini quyidagi ma’nolarni anglatadi: *calendar* – taqvim (ot) ~ odatda rejalashtirish uchun ishlatiladigan elektron taqvim ko‘rinishidagi dastur yoki vosita ma’nosini anglatadi. Kuzatishlar ushbu sodda tub termin bir necha ma’noda kelishini ko‘rsatdi:

1. *Calendar* (PN) ~ taqvim (sifat) – Derazalardagi onlayn taqvimga havola jonli taqvim.

2. *Calendar* (PN) ~ taqvim (sifat) – Voqealarni boshqarishni osonlashtirish uchun Microsoft ilovasi.

3. *Calendar* (PN) ~ taqvim (sifat) – Talabalar va o‘qituvchilar uchun veb-qism bo‘lib, u voqealar mazmuni va harakatlariga havolalar bilan birga bo‘ljak tadbirlarni namoyish yetadi.

4. *Calendar* (PN) ~ taqvim (sifat) – Outlook.com maydoni – bu odamlar va guruhlar qo‘shish, boshqarish va hissa voqealar haqida ma’lumot.

5. *Calendar* (PN) ~ taqvim (sifat) – Voqealarni boshqarishni osonlashtiradigan Outlook ilovasi

O‘zbek tilida kompyuter terminlar tizimida sodda tub terminlarga quyidagilarni misol qilish mumkin: *til*, *uslub*, *ro‘yhat*, *obyekt*, *dala*, *ramz*, *oltin* va h.k.

Ularning izohi quyidagicha berilgan:

Til – kompyuter terminologik tizimida matn xatolarini tekshirish uchun turli tildagi lug‘atlardan foydalanish imkoniyatini beradi.

Uslub – termini belgilangan yoki kiritilayotgan shrift stilini belgilashni anglatadi, *ro‘yxat* – termini esa, joriy yoki belgilangan abzas boshidan o‘rnatiladigan maxsus belgilarni (markerlar)ni, avtomatik nomerlash formatini belgilaydi.

Rasm – termini Wordda obyektlar (masalan, Slir Art -tayyor rasmlar, Word Art – maxsus shriftlar) o‘rnatish ma’nosida keladi.

Dala – termini yer maydonini o‘rnatishni.

Ramz – termini klaviatura mavjud bo‘lmagan begilarni o‘rnatish, chiziq – termini to‘g‘ri chiziq o‘rnatish ma‘nosida keladi.

Kompyuter va internet tub terminlari axborot kommunikatsiya terminlari tizimi orqali hosil qilinishi bo‘lib, o‘zbek tilida ular asosan o‘zlashmalar yordamida yasalishi kuzatildi:

— daemon – demon (biron-bir xodisa tufayli biron-bir funksiyani bajarish uchun chaqiriladigan, foydalanuvchidan yashirin amalga oshiriladigan jarayon. Ushbu jarayonda oldindan aniqlab qo‘yilgan harakatlarni bajarish talab qilinadi (uning bajarilishi ko‘pincha fon ish holatida amalga oshiriladi);

— doctor – doktor termini ikki ma‘noda qo‘llaniladi: 1) diagnostik dasturiy ta‘minot 2) axborot-diagnostik tizimi;

— pool – pul (dinamik taqsimlanadigan resurs, masalan, operativ xotira tizimi maydoni);

— jack – port kompyuter termini ham ko‘p ma‘noli terminlar qatoriga kiradi. 1) port (kabeli tizimning bog‘lovchi elementi) 2) kontaktli kolodka ma‘nosida;

— jog – kompyuter videoredaktorning ko‘rsatmasi asosida (kerakli kadr)ga siljitish; telecom 1) tezkor kommunikatsiya 2) har bir kadrni ko‘rib chiqish;

— half – kompyuterni apparatli yoki dasturli to‘xtatish (bunda ma‘lumotlar to‘liq saqlanib qolinadi) va h.k. Bunday terminlar lug‘atlarda salmoqli o‘rinni egallaydi.

Kompyuter sohasiga taalluqli Chip tub termini o‘zbek tilida o‘zlashma so‘z bo‘lib, integral sxema o‘rnatilgan yarimo‘tkazgich moddaning (odatda silikon) kichik bo‘lagi ma‘nosini beradi. Oddiy chip millionlab elektron tarkibiy qismlardan (tranzistorlardan) iborat bo‘lishi mumkinligini kompyuterlar to‘plagan sxemaviy plata deb nomlangan elektron asosga o‘rnatilgan ko‘plab chiplardan iboratligini bildiradi.

Ingliz tilida *host* tub termini kommunikatsiya va tarmoq resurslaridan (modemlar, faks-modemlar, katta kompyuterlar va h.k.) erkin foydalanish vazifalarini bajaruvchi, tarmoq bog‘lamalarida o‘rnatilgan kompyuter (server) ma‘nosini anglatadi.

Internet termida *hatch* – tuynuk tub termini misol qilish mumkin: hatch – tuynuk termini yashirin dastur yoki apparat mexanizmi. U odatda sinovdan o‘tkazish va nosozliklarni topish uchun yaratiladigan va kompyuter muhofazasini chetlab o‘tish uchun ishlatilishi mumkinligini bildiradi.

Shuningdek, internet termin tizimida sodda tub terminlar yasaliş mahsuldorligi kompyuter terminlariga qaraganda kam ekanligi kuzatildi.

Ingliz tilida label sodda tub termini farqli belgi sifatida o‘zbek tiliga tarjima qilingan bo‘lib, informatikada belgilar:

— dastur va qurilmalarda – ularning tarkibiy qismlari yoki elementlari;

— ma‘lumotlar bloki, fayl, maydon, ma‘lumotlar elementi, gap, ibora, so‘zning boshi yoki oxiri;

— tanlangan menyu elementi;

— dasturning turli qismlarida ishlatiladigan operator;

— xotira qurilmasi yoki uning qismi;

— elektron jadvalning bir guruh kataklari;

— to‘plamdagi buyruq kabi informatikadagi belgilarni aniqlash maqsadida qo‘llaniladi. Shuningdek, ushbu termin “farq belgilarini dasturlovchilar ham, foydalanuvchilar ham yaratishi va qo‘llashi mumkinligi, farq belgilari ekranda ko‘rinadigan yoki foydalanuvchilardan yashirilgan bo‘lishi mumkin”ligini anglatadi.

O‘zbek tilida kalkalash orqali termin hosilga e‘tibor qaratilishi xarakterlidir. Masalan, Gold sodda tub termini o‘zbek tilida oltin muqobil termin sifatida keladi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi mazkur termin “sariq rangli, zanglamaydigan asl metall. Oltin apparat ta‘minotini ishlab chiqarishda keng ishlatilishi. Korroziyadan saqlanish uchun, bosma platalarni elektr kontaktlarini oltin, platina va kumush qotishmasi bilan qoplanganlik” ma‘nosini anglatadi. Anglashiladiki, ingliz Gold terminining o‘zbekcha muqobili ham tub termin hisoblanadi.

Kompyuter terminiga oid yana bir Group – guruh sodda tub termini “umumiy masalani hal qilayotgan Obyektlar, masalan, kompyuterlar majmui”ni anglatadi. Ko‘rib turganimizdek, ingliz tilidagi tub shakldagi terminlarining ma‘lum bir qismiga o‘zbek tilidagi tub ko‘rinishdagi muqobilini belgilash orqali o‘zbek kompyuter va internet terminologiyasi boyitilmoqda. Bunda umumleksika yoki ma‘lum bir sohaga oid bo‘lgan so‘zlar ushbu terminologiya sohasida maxsus leksema mavqeiga ko‘tarilmoqda.

Ingliz tilidagi tub terminlar N (ot) terminlarning o‘zbek tilidagi modellari deb quyidagilar belgilanishi kuzatildi:

— N (ot) → N (ot): quantification → kvantifikatsiya, adjustment → 1) boshqarish, to‘g‘irlash 2) taqqoslash; adaptation moslashish, adaptatsiya; accessories aksessuar, moslama kabi;

— N (ot) → N+N (ot+ot): compander → siqish qurilmasi; waveguide → to‘lqin uzatkich kabi;

— N (ot) → Adj+N (sifat+ot): keypad 1) (numeric keypad) → 1) qo‘shimcha [raqamli] klaviatura 2) yordamchi klaviatura; maxsus klaviatura; jaw qisuvchi moslama kabi;

— N (ot) → N+N+N (ot+ot+ot): imager → tasvir signallarini shakllantirgich; pack → 1) elektr ta‘minot bloki kabi;

— N (ot) → Adj+N+N (sifat+ot+ot): plant → 1) avtomatik telefon stansiyasi, ATS; tablet → shaxsiy ma‘lumot jadvali kabi.

Ingliz tilidagi tub shakldagi kompyuter va internet terminlarining ma‘lum bir qismiga o‘zbek tilidagi tub ko‘rinishdagi muqobilini belgilash orqali o‘zbek internet terminologiyasi boyitilmoqda. Bunda umumleksika yoki ma‘lum bir sohaga oid bo‘lgan so‘zlar internet terminologiyasi sohasida maxsus leksema mavqeiga ko‘tarilmoqda. Masalan, Sell termini uchun o‘zbek tilidagi uya leksemasi tanlangan bo‘lib, axborot-kommunikatsiya texnologiyasi sohasida quyidagi ma‘nolarda ishlatiladi:

1. Jadvaliy qo‘llanmalarda – ma‘lumotlar elementini (matn, son qiymati, formula) kiritish uchun mo‘ljallangan to‘g‘riburchak shaklli katak. Butun jadval uyalari ustunlar va qatorlardan iborat bo‘ladi. Jadvaldagi uya, ma‘lumotlar bazasini boshqarish tizimidagi maydonga uhsaydi.

2. Telekommunikatsiyalar va aloqada – qayd etilgan ma‘lumotlar paketi.

3. Xotira uyasi – o‘zining manziliga ega va bit, bayt, so‘z yoki so‘z qismini saqlay oladigan xotira elementi.

4. Registr uyasi – bir bitni saqlashga mo‘ljallangan registr elementi.

5. Uyali aloqa tizimlarida – uyali aloqa bilan qamrab olingan fazo bir-biriga yopishib ketadigan uyalarga bo‘linadi. Ularning har birida, uyali aloqa asosiy stansiyasi o‘rnatiladi. Shu stansiyalarning o‘zaro ishlashi tarmoqni hosil qiladi.

6. Optik disk, magnit disk va magnit tasmaning uyasi – shu qurilmaning sohasi yoki maydoni. O‘z navbatida, disk yoki tasma, amaliy jarayonga taqdim qilinadigan xotira uyasidir. Bu o‘rinda uchinchi va to‘rtinchi berilgan ma’no internet sohasiga taalluqli bo‘lsa, oltinchi berilgan ma’no kompyuter sohasiga tegishlidir.

Ko‘rib turganimizdek, ingliz tilidagi tub shakldagi terminlarining ma’lum bir qismiga o‘zbek tilidagi tub ko‘rinishdagi muqobilini belgilash orqali o‘zbek kompyuter va internet terminologiyasi boyitilmoqda. Bunda umumleksika yoki ma’lum bir sohaga oid bo‘lgan so‘zlar terminologiyasi sohasida maxsus leksema mavqeiga ko‘tarilmoqda. Masalan, o‘zlashma jurnal tub kompyuter termini “qayd yozuvlarini saqlovchi fayl. Ushbu fayl matn formatida yoki ma’lumotlar bazasi formatida bo‘lishi mumkin. (Internet Explorer brauzerida) oxirgi N kun ichida ko‘rilgan sahifalar manzillari saqlanadigan joy. N sonini (yozuvlarning eng ko‘p saqlanish muddatini) belgilash uchun “Xizmat” menyusida “Svoystva obozrevatelya” bandini tanlash va “Obshiy” qismida “Jurnal” bo‘limini topishni, ro‘yxatni ko‘rish uchun “Vid” menyusida “Paneli obozrevatelya” bo‘limini topib “Jurnal”ni bosishni anglatadi. Oynaning chap tomonida manzillar ro‘yxati paydo bo‘lish”ini bildiradi.

Yasama terminlar. Affikslarning so‘z yasash sohasida sermahsulligi tillarning tub mohiyatidan, ya’ni ularning agglyutinativlik xususiyatidan kelib chiqadi. Bu tillarga o‘zga tillarning ta’siri, ayniqsa, so‘z yasash jarayonida ko‘zga tashlanadi. O‘zga tillardan yasalish asosi sifatida nafaqat leksik birliklar, ba’zan yasovchi vositalar ham olinadi.

Kompyuter va internet sodda strukturali terminlarda ko‘proq suffiksatsiya, prefiksatsiya va sirkumfiksatsiya usulida yasalgan terminlar kuzatildi. Suffiks usulida termin yasalishida ba’zan yasovchi asosning o‘zi ham termin hisoblanadi. Bu holat o‘zbek tilida o‘zlashma so‘zlardan termin yasalishida ko‘p kuzatiladi. Masalan, proyektlash, butunlik, jurnal kabilar.

Kompyuter va internet terminlarini yasama usulda shaklanishida suffikslar orqali termin yasash eng mahsuldor usul hisoblanadi.

Ingliz tilida - ing, - er, - ity, -ant kabi affikslar terminlar yasashda samarali hisoblanadi: Masalan, sloaking termini ham – ing affiksi bilan yasalgan yasama internet termini bo‘lsa-da, o‘zbek tiliga sloaking, ya’ni tub termin shaklida kirib kelgan. Ushbu termin veb-serverning foydalanuvchiga bir mazmunni, izlovchi robotga boshqa mazmunni ko‘rsatuvchi ish usulini ifoda etadi.

Ingliz tilidagi -er o‘zbek tilidagi - chi affiksiga to‘g‘ri keluvchi mahsuldor suffiks bo‘lib, shaxs otlarini yasaydi. Bu qo‘shimcha ingliz tilidagi fe‘l so‘z turkumiga mansub so‘zlarga qo‘shiladi hamda muayyan harakatning bajarilishini ta’minlovchi predmet yoki shaxs ma’nosini ifodalovchi terminlarini hosil qiladi va bu ko‘proq

kompyuter terminlarida kuzatiladi: dasturlovchi, tozalovchi, saqllovchi va h.k.

Cracker termini crack soʻziga -er qoʻshimchasini qoʻshish orqali hosil qilingan yasama termin boʻlsada, oʻzbek tiliga tub termin sifatida, yaʼni kreker boʻlib oʻzlashgan.

Shu bilan birga ingliz tilida -ation, -tion suffikslari orqali kompyuter va internet terminlar yasalishi maxsuldor ekanligi aniqlandi.

-ation:

vocalization vokalizatsiya

verification tekshirish, tasdiqlash

transaction tranzaktsiya. Bitim

transcription maʼlumotlarni qayd etish

termination tugatish, toʻhtatib qoʻyish, tamomlash

actuation xarakatga keltirish

penetration ichiga kirib borish

clarification aniqlashtirish

-tion:

substitution almashtirish

deflection chetlanish, buzish

caption sarlavha, imzo, ekrandagi yozuv

conjunction bogʻlash

repetition takrorlash

saturation toʻyinganlik

instruction koʻrsatma, yoʻriqnoma

condition holat, shart, status

resolution rezolyutsiya, qaror

transition oʻtish.

Koʻrib turganimizdek, ingliz tilidagi ushbu suffikslar oʻzbek tilida - ish, - lik suffikslariga toʻgʻri keladi.

Ushbu usulda yasalgan terminlarni izohiga eʼtibor qaratamiz:

— Animation termini “bir necha tasvir yoki kadrlarni koʻrsatish orqali yaratiladigan harakat taqlidi” tushunchasini anglatuvchi yasama internet termini boʻlsa-da, oʻzbek tiliga tub internet termini sifatida animatsiya shaklida oʻzlashgan.

— Integration termini ingliz tilida quyidagi maʼnoni anglatadi: *The process of coordinating the operation of the various programs, databases, and existing technologies of a business or enterprise so that they function as an efficient, business-wide system.*

— Consulting termini ingliz tilida consult – maslahat bermoq feʼliga –ing qoʻshimchasini qoʻshish orqali hosil qilingan. Internet sohasida ham “ekspertiza oʻtkazish va maslahat berish faoliyati bilan bogʻliq xizmat turi” maʼnosiga boʻlgan konsalting termini oʻzbek tiliga transkripsiya usuli bilan oʻzlashgan boʻlib, tub termin hisoblanadi. Misollar asosida guvoh boʻldikki, oʻzbek tilida, asosan, - ish, -lash, -lik, -ish, -lash, -chi, -kor kabi affikslar terminlar yasashda samarali hisoblanadi:

— Kompyuter terminiga nusxalash, koʻchirish, yoqish, oʻzgartirish kabi

misollarni keltirsak, internet terminlariga tarmoqlash, hisoblash, tizimlash kabilar misol bo'la oladi. Masalan, ko'chirish termini "birinchi buyruqda nomi ko'rsatilgan faylning nusxasi ko'rsatilgan nom bilan ko'chiriladi. Ikkinchi buyruqda esa faylning nusxasi ko'rsatilgan katalogga ko'chirilishi"ni bildiradi.

— Butunlik termini "obyektning (axborotni, apparat yoki dasturiy ta'minotni) buzilmagan shaklda (uning qaydlangan biror bir holatiga nisbatan) mavjud bo'lish xossasi" ma'nosini anglatadi.

— Joylashtirish termini ham suffiksatsiya usuli orqali yasalgan kompyuter termini bo'lib, bir necha ma'noni anglatadi: 1. Biror narsani joylashtirish, ishlatish tartibi; 2. Informatikada – sahifalarning o'lchovlarini va matnlarning sahifasini, tasvir tuzulmasini belgilaydi. 3. Dasturlashda – ma'lumotlarni kiritish-chiqarish tartibi va ketma-ketligi. 4. Apparatchi ta'minotini loyihalashda-platalar, integral sxemalar va tarkibiy qismlarni joylashtirish. 5. Tashqi xotirada faylni yozish uchun makon ajratish. Ko'rib turganimizdek, ushbu termin ham kompyuter ham internet terminida o'z mustaqil ma'noni bildiradi.

— Mualliflash termini 1. Huquqlarni berish. U erkin foydalanish huquqlari asosida erkin foydalanishga huquq berishni ham o'z ichiga oladi. 2. Foydalanuvchining resursdan erkin foydalanish huquqlari va ruxsatlarini tekshirish jarayoni. 3. Foydalanuvchiga hisoblash tizimida ba'zi ishlarni bajarish uchun muayyan huquqlarni berish.

O'zbek tilida autentifikatsiya o'zlashma termini quyidagi ma'nolarga ega: 1. Obyektlarning bir xilligini tekshirish jarayoni. 2. Subyekt taqdim etgan aniqlashtiruvchi (identifikator) unga tegishliligini, haqiqiylikini tekshirish. 3. Foydalanuvchining tizimdan erkin foydalanishi uchun kiritilgan va qayd etilgan axborotining to'g'riligini tekshirish tartibi. Mazkur terminning uchinchi berilgan ma'nosi internet sohasiga oid. Ingliz tilida aslida yasama termin authentication (authenticate + -tion) o'zbek tiliga tub atama sifatida kirib kelgan.

Kompyuter va internet terminlari (o'zbekcha yasalma terminlar)ga xos yasash usullari va tamoyillariga amal qilinmaslik oqibatida vujudga kelgan quyidagi xato va kamchiliklarni ko'rsatib o'tish mumkin:

Tilning oddiy so'zlashuv tiliga xos "me'yor"lar asosida shakllantirilgan terminlar va terminologik birliklar: redial – avtoterish, loader – yuklovchi, operating tools – shifrlash vositalari kabi. Birgina misol tariqasida keltirilgan avtoterish, yuklovchi, shifrlash vositalari ko'rinishdagi terminlar (o'zbekcha yasalma terminlar) o'z vazifasiga ko'ra biror predmet yoki jarayon nomini anglatishi kerak. Bizga ma'lumki, o'zbek tilidagi -sh(-ish) affiksi ish-harakat va jarayonni ifodalovchi terminlarni yasashda juda faol ishtirok etadi. Biroq -sh(-ish) affiksini -gich(-kich) affiksi o'rnida noo'rin qo'llanilishi natijasida predmet nomlarini anglatuvchi terminlar o'rniga jarayon nomlarini anglatuvchi terminlar paydo bo'lganligiga guvoh bo'lamiz. Mazkur terminlarning kompyuter terminlari lug'atidagi tavsifiga murojaat etadigan bo'lsak masala yanada oydinlashadi. Lug'atda redial (ingl.) – avtoterish, ya'ni telefon (apparatidagi) raqamlarni avtomatik tarzda terib berish funksiyasini bajaradigan moslamani anglatadi. Loader (ingl.) – yuklovchi. Amaliy tizimning jarayoniga

zarur dasturlarni taqdim qiluvchi bloki. Ciphering tools (ingl.) – shifrlash vositalari. Apparat, dasturiy va apparat-dasturiy vositalar, tizimlar va majmualar.

O'zbek tilidagi avtoterish – avtoterigich, yuklovchi – yuklagich, shifrlash vositalari – shifrlagich deb almashtirilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki o'zbek tilida texnikaviy nomlarning asosiy qismi (agarda u tomonidan bajariladigan ish-harakat nuqtai nazardan nomlansa) asosan -gich (-kich) affiksi yordamida shakllanganligini kuzatdik.

NATIJALAR VA MULOHAZA

Barcha sohaga oid terminlar nominativ funksiyaga ega bo'lib, nominatsiyalash jarayonida internetga oid terminlar mavhum va konkret tushunchalarni, jonli va jonsiz predmetlarni, sanaladigan va sanab bo'lmaydigan obyektlarni ifodalashga xizmat qiladi. Bu esa, "spesifik til birliklari sifatidagi terminlar odatda otlar yoki ular negiziga qurilgan so'z birikmalari ko'rib chiqilishi" bilan bog'liq.

Darhaqiqat, har qanday aniq bir tilning leksik tizimi bugungi kunda asosan maxsus nomlar hisobiga to'ldirilishiga qaramay terminologik nominatsiyalash borasida olib borilgan tadqiqotlar ko'p emas. Odatda terminologik nominatsiyalash muammolari umumiy xarakterga ega bo'lgan terminologik ishlarda tilga olinadi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, terminologiyada nominatsiya hodisasiga o'zbek olimlaridan X.Paluanova, O.Axmedov, D.Saidqodirova, D.Kadirbekova, P.Nishonov va boshqa tadqiqotchilar alohida e'tibor qaratishgan.

Terminning nominativ funksiyalari xususida faqat terminologik leksikaning alohida terminlari yoki mikro-guruhlarining ta'rifi bilan chambarchas bog'liqlikda ko'rib chiqish mumkin. Ma'lumki, terminlar nominatsiyasi qachon ro'y bergan bo'lishiga qaramay, sohaga oid tushuncha o'zining nominatsiyasidan avval paydo bo'lishi fanda ancha vaqtlar oldin isbotlangan. Bu holat, ayniqsa, internet sohasi uchun xosligiga shubha yo'q. Kompyuter texnologiyalari va internet tarmog'ida yangi turdagi elektronik vosita, dasturiy ta'minot, xizmat turlarining vaqt o'tgan sayin yaratilishi ularni nomlash zaruratini keltirib chiqaradi. Nominatsiyaning mohiyati biror bir lisoniy belgi orqali nomni ifodalamaydi, balki ma'lum bir mavhumlikni insonning bilish faoliyatining pirovard natijasi sifatida talqin etadi.

Terminning yana bir vazifasi definitiv funksiya hisoblanadi, ya'ni so'z nafaqat ma'lum bir aniq tushunchaning ifodasi, mantiqiy ta'rif vositasi bo'lib ham xizmat qiladi. Terminlarni nominativ funksiyasi tadqiqida va nominatsiyalash jarayonida definitiv funksiyani hisobga olish zarurati tug'iladi. Zero, A.V. Lemov terminning definitiv funksiyasi terminda definitiya borligi fakti sifatida tushunilishi mumkinligini ta'kidlaydi. Olim, definitiv funksiya matnida ishtirok eta olish qobiliyati, uning leksik vositasi bo'lish qobiliyati sifatida ko'rib chiqilish muhimligi va u termin o'zining ichki shakli yordamida tushunchaning ma'zmunini ifodalash qobiliyati sifatida talqin etilishi mumkinligini ta'kidlaydi.

A.V. Lemov terminning definitiv funksiyasiga uning o'zini o'zi belgilash qobiliyati sifatida qaragan bo'lsa, A.I. Moiseevning definitiv funksiyani terminga xos deb tan olish mumkin emasligi, termin tushunchani ta'riflamasligi, bu mantiqiy

definititsiyaning vazifasi ekanligi haqidagi to'g'ri fikr bildirgan. Zero, definitiv funksiya maxsus nomning asosiy farqlovchi jihati deb hisoblash imkonini bermaydi.

Termin tushunchaga ma'lum darajada yo'naltirishi mumkin, ya'ni motivlangan bo'lishi mumkin. Bu holatda u faqat eng umumiy tushunchadagi definititsiya elementidan iborat bo'lishi mumkin, lekin bu biz terminning ta'riflash funksiyasiga duch keldik, degani emas. Bundan tashqari, ko'rsatilgan ma'noda tilning ichki shaklga ega bo'lgan ko'pgina so'zlari ham motivlangan hisoblanadi. Rus tilshunos terminologlari A.V. Superanskaya, N.V. Vasileva va N.V. Podolskayalarning fikriga ko'ra, termin – "kasbiy faoliyatda odatiy bo'lib qolgan va ayrim sharoitlarda ishlatiladigan maxsus so'z yoki so'z birikmasi. Termin bu kasbiy bilimlarning ma'lum bir doirasining tushunchalar tizimiga tegishli bo'lgan tushunchani so'z bilan belgilash. Termin bu tilning maxsus maqsadlari uchun mo'ljallangan tushunchaning tarkibiy qismi". Olimlar tildan tashqari voqelikning narsa va hodisalarni nomlash mexanizmi – ular kundalik, maishiy realiyalar yoki ilmiy-tadqiqot obyektlari bo'lishidan qat'iy nazar – bir xil bo'ladi, degan fikrdalar. Maishiy tushunchalarni ifodalash uchun hamma yerda qo'llanadigan so'zlar, ilmiy tushunchalarni ifodalash uchun esa – terminlar ishlatiladi. Shu joyda maishiy va ilmiy tushunchalar deganda biz nimani nazarda tutishimizni aniqlashtirish kerakligini ta'kidlaydilar.

L.A. Kapanadze "terminning mazmuni – tushunchaning ta'rifi, unga biriktiriladigan izoh", deya ta'kidlaydi. Ushbu ta'rif, terminologiyada nomenklatura tushunchasini aniq belgilashda muhim manba hisoblanadi.

Ko'pgina mutaxassislar termin nominativ funksiya xos emas, degan fikrni ham ilgari surishadi. Masalan, V.M. Leychik, S.D. Shelovning fikrlariga qaraganda, terminning nominativligi uni boshqa til birliklaridan ajratib turadigan muhim belgisi emas, zero, nominativlik lisoniy belgining xususiyati hisoblanadi. Demak, nominativ funksiya faqat terminlarga emas, balki barcha otlarga va substantiv so'z birikmalariga ham xos bo'ladi. Lekin, bu yerda terminlarni lingvistik jihatlaridan kelib chiqib, ularda ham so'z va so'z birikmalari ishtiroki mavjudligini ta'kidlash lozim. Bu borada F.Qodirovaning terminlar xususiyatlari borasida bildirgan fikri o'rinli hisoblanadi: "terminlar shunchaki o'ziga xos so'zlar bo'lmay, balki o'ziga xos leksik birliklar hamdir. Terminlar nomlash bilan birga, ta'rif berish xususiyatiga ham ega. So'zlashuv nutqida sodir bo'ladigan barcha leksik-semantik jarayonlar terminlarga ham xosdir. Ammo terminologik leksikadagi bunday semantik jarayonlar (ko'p ma'nolilik, omonimlik, sinonimlik, antonimlik kabilar) umumadabiy leksikadan farqlanadi".

Albatta, terminologik nominatsiyalash ancha keng muammolar doirasini qamrab, bu bilan uni bilimning alohida turkumiga ajratishga imkoniyat beradi. Bu terminologik faoliyatning maxsus nomlar shakllanadigan va u yoki bu tilning termin yasaydigan vositalarining salohiyati har tomonlama ochiladigan doirasidir. Zero, "termin – ilmiy matnda ilmiy bilimning minimal tashuvchisi, kelishuv asosida ta'rif bilan cheklangan ilmiy tushunchaga biriktirilgan elementar nominativ belgi-birlik sifatida ishlatiladigan leksik birlikdir (so'z yoki so'z birikmasi)".

Terminlarni nominatsiyalash borasida terminologik tizim masalasi e'tiborga loyiq bo'lib, V.M. Sergevnina to'g'ri ta'kidlaganidek: "terminologik tizim" deyilganda,

ilmiy va muayyan mutaxassislik doirasidagi tushunchalarning lisoniy nominatsiyalar orqali o‘zaro bog‘lanadigan murakkab butunligi tushuniladi. Ma’lumki, terminlar ma’no mohiyatiga ko‘ra har xil terminosistema tarkibiga birlashadi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, bir xil predmet yoki hodisani belgilovchi va nominatsiyaning turli belgilaridan foydalanib yasalgan terminlari obyektiv voqelikning qaysi tomonlari ularda aks ettirilgan bo‘lsa, shu tomondan bir-birini to‘ldiradi. Darhaqiqat, “Jismlar yoki hodisalarning bunday tavsiflarida subyektiv jihat ham borki, u ham bo‘lsa nominatsiya asosi sifatida belgilanayotgan jism yoki hodisaning obyektiv ahamiyati bo‘yicha teng sifatlaridan birini tanlash faktidan iborat”. Nomlash asosiga qo‘yilgan bosh tamoyil shundan iboratki, nomlanayotgan jismning aniq belgisi orqali uning umumlashgan obrazini ifodalash lozim, ya’ni xususiy, subyektivdan umumiy, obyektlashtirilgan unsurga o‘tish kerak.

Ma’lumki, “Terminlar bu o‘ziga xos emas, balki alohida vazifani bajaruvchi so‘zlardir. So‘zning termin sifatida bajaradigan alohida vazifasi – bu nomlash vazifasi. G.O. Vinokur ushbu fikrining davomi sifatida quyidagini ta’kidlaydi: “... nomlash vazifasini ko‘pincha oddiy so‘zlar ham bajaradi, maishiy so‘zlar ham termin bo‘lishi mumkin. Biroq maishiy termin narsaning nomi hisoblanadi. Vaholanki, ilmiy-texnikaviy termin albatta tushunchaning nomidir”.

S.Xaydarovanning tadqiqotida terminlarni nominativ funksiyasi borasida nominatsiya inson faoliyatining maxsus sohasiga mansub bo‘lganini ko‘rsatishi haqidagi fikrlar diqqatga sazovor bo‘lib, ular quyidagi ta’riflarda namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi:

- ma’lum bir maxsus faoliyat doirasiga oid bo‘lgan kasbiy tushunchani ifodalaydigan ma’lum bir so‘z yoki barqaror eshittiriladigan so‘z birikmalari variatsiyalarining yig‘indisi bo‘lgan atamalar tizimining tarkibiy qismi;

- maxsus tushunchalarni aniq ifodalash va maxsus narsalarni belgilash uchun yaratiladigan (qabul qilinadigan, o‘zlashtiriladigan va hokazo) maxsus tilning so‘z yoki so‘z birikmasi;

- kasbiy ma’noga ega bo‘lgan ma’lum bir obyektlar va ular orasidagi munosabatlar doirasini ma’lum bir kasb nuqtai nazaridan bilish va o‘zlashtirish jarayonida ishlatiladigan kasbiy tushunchani ifodalab shakllantiradigan so‘z yoki so‘z birikmasi;

- maxsus tilning nominativ maxsus lug‘aviy birligi (so‘z yoki so‘z birikmasi);

- maxsus tushunchaning nomi bo‘lgan va definitsiyanishi kerak bo‘lgan maxsus qo‘llash doirasining so‘zi yoki so‘z birikmasi;

- ma’lum bir tushunchaga oid deb hisoblangan va ushbu sohadagi boshqa tushunchalar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lgan va ular bilan birgalikda terminologik tizimni tuzgan fan va texnikaning mazkur sohasidagi birlikning nomi;

- til belgisi fan yoki texnikaning mazkur doirasi tizimidagi tegishli tushuncha bilan o‘zaro munosabatda bo‘lgan (bog‘langan) so‘z (yoki so‘z birikmasi);

- bilim yoki faoliyatning ma’lum bir maxsus doirasining nazariyasiga oid bo‘lgan umumiy

- aniq yoki mavhum – tushunchani belgilaydigan maxsus maqsadlar uchun

mo'ljallangan ma'lum bir tilning lug'aviy birligi;

— o'zining maxsus vazifasi bilan chegaralangan maxsus so'zlar;

— kasbiy faoliyatda odatiy bo'lib qolgan va maxsus sohada ishlatiladigan so'z (yoki so'z birikmasi);

— maxsus tushuncha, hodisa yoki narsa bilan o'zaro munosabatda bo'lgan til belgisi (so'z yoki so'z birikmasi).

Demak, maxsus leksemalarning ichki shaklida ularning shaffof ravishda ifodalanishi mumkin bo'lgan yoki etimologik tahlil asosida aniqlangan motivatsiyasiga ishora saqlanadi.

M.N. Volodina terminologik nominatsiyalash jarayonida ikkita: tartibsiz ravishda sodir bo'ladigan va tizimli bosqichlarni ajratgan: tartibsiz ravishda sodir bo'ladigan yoki dastlabki bosqichga yangi bilimlarni ma'lum bo'lgan shakllar, ya'ni terminlar sifatida assotsiativ qayta o'ylab ko'rilishga uchragan hamma ishlatadigan so'zlar yordamida qayd etish xosdir. Subyektiv jihat bu yerda juda muhim o'rin egallaydi, nom tasodifiy belgiga asoslanishi mumkin, ammo bu termin ko'proq ish jarayonida ishlatiladigan belgi bo'ladi. Termin yasashning ikkinchi, ya'ni tizimli bosqichida termin suniy tartibga solish obyekti sifatida ko'rib chiqilib terminologik vositalarni birxillashtirish va standartlashga asos beradi. Nom olayotgan hodisa anglaniladi.

Maxsus tushunchaga biriktirilgan termin mazkur bilim sohasining tushunchasiga oid tizimida ma'lum bir joyni egallashi lozim, bu esa nomlangan hodisaning o'zi ilmiy tushunchalar tizimida o'z joyini topganda ro'y beradi. Ikkala holatda ham nomning asosida yotgan eng ko'p axborot beradigan belgini tanlash prinsip jihatidan muhim bo'ladi.

Terminlar til belgilari sifatida narsalar qatori bilan ikki barobar o'zaro munosabatga ega bo'ladi. Bunda nominativ belgilar:

— nominatsiyalar tizimida;

— paradigmalar tizimida.

Bunda:

— tilda hamma ishlatadigan so'z ma'nosining terminologizatsiyasi (kengayishi);

— hamma ishlatadigan so'z ma'nosining ixtisoslashtirilishi (torayishi);

— hamma ishlatadigan so'z ma'nosini ko'chirish;

— leksemalarning tizimlararo o'zlashtirilishi, hamda leksema va atamaning tarkibiy qismlarini boshqa tildan o'zlashtirilishi.

S.A. Xaydarova terminlarda nominatsiyannig beshta asosiy usullarini ko'rsatib o'tgan:

— affiksal so'z yasash;

— so'z qo'shish;

— o'zlashtirish;

— tarkibiy nomlarni yasash;

— semantik ko'chirishlar.

Terminologik nominatsiyalashning so'z yasash usullariga semantik, morfologik va sintaktik usullar kiradi.

Kompyuter va internet terminlari ham umumiste'moldagi leksemalardan

semantik usul yordamida hosil bo'lgan terminlar xuddi ana shu ikkinchi nominatsiya jarayonining mahsuli hisoblanadi. Zero, nominatsiya tilning kommunikativ funksiyasining mahsuli hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida, umumiste'moldagi leksemalardan, ularning semantikasini o'zgartirish bilan termin hosil qilish mexanizmining yuzaga chiqishiga ko'maklashadi.

Zero, birlamchi nominatsiya an'anaviy ravishda o'z nomiga ega bo'lmagan obyektga nom berishni anglatadi, Boshqacha aytganda, o'z nomini kutayotgan obyektga ona tilida so'zlashuvchi boshlang'ich sifatida qabul qiladigan nom berilgan hollar tushuniladi. Birlamchi nominatsiya natijalari samarasiz deb hisoblanadi, uni faqat tarixiy yoki etimologik tahlil yordamida aniqlash mumkin. Birlamchi nominatsiya til faoliyatining zamonaviy realiyalarida juda oz uchraydigan hodisadir. Yangi so'zlar faqat inson faoliyatida yangi obyektlar (lazer, neyron) ixtiro qilinganda yoki yaratilganda, shuningdek, avval noma'lum bo'lgan narsalar aniqlanganda paydo bo'ladi.

Ikkilamchi nominatsiya – “nomga ega bo'lgan obyektga nom berish jarayoni, ya'ni ular uchun yangi nomlash funktsiyalarida tilda allaqachon mavjud nominativ vositalardan foydalanish”. Darhaqiqat, zamonaviy realiyalarda tilning nominativ komponenti asosan o'zlashtirma va ikkilamchi nominatsiya orqali, boshqacha qilib aytganda, allaqachon mavjud bo'lgan birlikdan foydalanish hisobiga to'ldiriladi.

XULOSA

Shunday qilib, nominatsiya nominativ birliklarni nomli obyektlar bilan o'zaro bog'lash va ularning reallikni aks ettirish jarayoni sifatida nomlash degan xulosaga kelishimiz mumkin. Til tizimi birlamchi va ikkilamchi nomlarni o'z ichiga oladi. Tildagi hodisaning birinchi marta namoyon bo'lishi birlamchi nominatsiya hisoblanadi. Ikkilamchi nominatsiya orqali atrofdagi voqelik hodisalari qayta ko'rib chiqiladi, til vositalaridan foydalangan holda dunyoga munosabatni ko'rsatish, til birligining to'g'ridan-to'g'ri ma'nosini olam haqidagi ma'lumotlar to'plami bilan bog'lash va o'zaro bog'lash mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Arutyunyan, V.N. (2006). *Imya prilagatelnoe v sisteme nominatsii (na materiale russkogo yazyka)*. Yerevan.
2. Averbux, K.Y. (1986). Terminologik o'zgarishlar; nazariy va amaliy jihatlar. *Tilshunoslik masalalari*, 6, 38-49.
3. Axmanova, O.S. (1969). *Lingvistik terminlarning lug'ati* (2-nashr). Moskva: “Sovet ensiklopediyasi” nashriyoti.
4. Danilenko, V.P. (1977). *Russkaya terminologiya*. Moskva: Nauka.
5. Fasmer, M. (1986). *IV jildli rus tilining etimologik lug'ati (1986-1987)*. Moskva.
6. Gak, V.G. (1998). *Yazikovye preobrazovaniya*. Moskva: Shkola.
7. Glushko, M.M. (1974). *Funksionalniy stili obshchestvennogo yazika i metodi yego issledovaniya*. Moskva.
8. Golovin, B.N. (1987). *Terminlar ta'limotining lingvistik asoslari*. Moskva: Oliy maktab.
9. Grinev, C.B. (1993). *Vvedeniye v terminologiyu*. Moskva.
10. Hasanova, D.O. (2011). Arabcha lug'aviy o'zlashmalarning o'zbek tili nominativ va derivativ tizimidagi o'rni. *Filol. fan. nom. dis. avtoref*. Toshkent.

11. Ismailov, G'.M. (2011). O'zbek tili terminologik tizimlarida semantik usulda termin hosil bo'lishi. *Filol. fan. nom. dis.* Toshkent.
12. Kandelaki, T.L. (1977). *Semantika i motivirovannost terminov.* Moskva: Nauka.
13. Kapanadze, L.A. (1965). O ponyatiyax "termin" i "terminologiya". V *Razvitie leksiki sovremennovo russkogo yazika.* Moskva: Nauka.
14. Katermina, V.V. (2004). Predstavlenie natsionalno-kulturnoy spetsifiki obraza cheloveka v sisteme nominatsiy XIX veka (na materiale russkogo i angliyskogo yazikov). *Avtoref. dis. dok. filol. nauk.* Rostov.
15. Klimovitskiy, Y.A. (1969). Nekotoryye metodologicheskiye voprosy raboty po terminologii nauki i tekhniki. V *Sovremennyye problemy terminologii nauki i tekhniki.* Moskva: Nauka.
16. Kolshanskiy, G.V. (1976). Nekotore voprosi semantiki yazika v gnoseologicheskom aspekte. V *Printsipi i metodi semanticheskix issledovaniy.* Moskva: Nauka.
17. Kosykh, Y.A. (2016). *Russkoye onomasiologiya.* Barnaul.
18. Kubryakova, Y.S. (2004). Yazik i znanie: na puti polucheniya znaniy o yazike: chasti rechi s kognitivnoy tochki zreniya. V *Rol yazika v poznanii mira.* Moskva.
19. Kurgalina, M.V. (2015). Vtorichnie atributivnie sredstva nominatsii priznaka "intensivnost zvuka" v angliyskom yazike. *Diss. kand. filol. nauk.* Voronej.
20. Layenko, L.V. (2005). *Pertseptivny znak kak ob'yekt nominatsii.* Voronezh.
21. Lemov, A.V. (2000). *Sistema, struktura i funktsionirovanie nauchnogo termina (na materiale russkoy lingvisticheskoy terminologii).* Saransk.
22. Leychik, V.M. (1989). Predmet, metody i struktura terminologii. *Diss. dok. filol. nauk.* Moskva.
23. Moiseev, A.I. (1970). O yazikovoy prirode termina. V *Lingvisticheskie problemi nauchno-tekhnicheskoy terminologii.* Moskva: Nauka.
24. Paluanova, X.D. (2016). Ingliz, o'zbek, rus va qoraqalpoq tillarida ekologik terminlarning derivatsion-semantik printsiplari. *Filol. fan. dok. dis.* Toshkent.
25. Qodirova, F.Sh. (2020). Ingliz va o'zbek tillarida tasviriy san'at va dizaynga oid atamalarining lingvistik va madaniy xususiyatlari. *Filol. fan. fal. dok. dis.* Toshkent.
26. Reformat'skiy, A.A. (1961). Chto takoe termin i terminologiya? Materiali Vsesoyuznogo terminologicheskogo soveshaniya "Voprosi terminologii". Moskva.
27. Reformat'skiy, A.A. (1968). Termin kak chlen leksicheskoy sistemy. V *Voprosy strukturnoy lingvistiki.* Moskva.
28. Sergevnina, V.M. (1978). Printsip sistemnogo analiza terminov. V *Termin i slovo.* Gor'kiy.
29. Sudovtsev, V.A. (1989). *Nauchno-tekhnicheskaya informatsiya i perevod.* Moskva: Vysshaya shkola.
30. Superanskaya, A.V., Podolskaya, N.V., Vasileva, N.V. (1989). *Obshaya terminologiya: voprosi teorii.* Moskva: Nauka.
31. Tadzhiyev, D.T. (1955). *Sposoby svyazi opredeleniya s opredelyayemym v sovremennom literaturnom tadzhikskom yazyke.* Stalinabad.
32. Teliya, V.N. (1998). Nominatsiya. V *Bolshoy entsiklopedicheskiy slovar: yazkoznanie.* Moskva.
33. Teliya, V.N. (1977). Vtorichnaya nominatsiya i yeye vidy. V *Yazykovaya nominatsiya: tipy imen.* Moskva: Nauka.
34. Vinogradov, V.V. (1961). *Voprosi terminologii.* Moskva.
35. Vinokur, G.O. (1939). *O nekotorykh yavleniyakh slovoobrazovaniya v russkoy tekhnicheskoy terminologii.* Moskva.
36. Volodina, M.N. (1997). *Teoriya terminologicheskoy nominatsii.* Moskva.
37. Xaydarova, S.A. (2016). Sopostavitel'nyy analiz formalnix modeley terminologicheskix slovosochetaniy v angliyskom i tadzhikskom yazikax. *Avtoref. diss. kand. filol. nauk.* Dushanbe.
38. Xayrutdinov, D.R. (2009). Geograficheskaya terminologiya: arabskie, russkie, angliyskie paralleli. *Diss. kand. filol. nauk.* Kazan'.
39. Zolyan, L.K. (2018). K voprosu o terminologicheskoy nominatsii. *Uchenyye zapiski,* 217-200.

40. *O'zbekiston milliy ensiklopediyasi*. (2004). Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.

REFERENCES

1. Akhmanova, O.S. (1969). *Glossary of linguistic terms* (2nd ed.). Moscow: 'Soviet Encyclopedia' Publishing House.
2. Averbukh, K.Y. (1986). Terminological changes; theoretical and practical aspects. *Issues of Linguistics*, 6, 38-49.
3. Danylenko, V.P. (1977). *Russian terminology*. Moscow: Science.
4. Fasmer, M. (1986). *Etymological dictionary of the Russian language, volume IV (1986-1987)*. Moscow.
5. Gak, V.G. (1998). *Language transformations*. Moscow: School.
6. Glushko, M.M. (1974). *Functional style of public language and methods of research in Yevo*. Moscow.
7. Golovin, B.N. (1987). *Linguistic foundations of the doctrine of terms*. Moscow: Higher School.
8. Grinev, S.V. (1993). *Introduction to terminology*. Moscow.
9. Harutyunyan, V.N. (2006). *Adjective in the nomination system (based on the Russian language)*. Yerevan.
10. Hasanova, D.O. (2011). The role of Arabic lexical acquisitions in the nominative and derivational system of the Uzbek language. *Dis. abs. cand. philol. scien.* Tashkent.
11. Ismailov, G.M. (2011). Semantic formation of terms in terminological systems of the Uzbek language. *Dis. cand. philol. scien.* Tashkent.
12. Kadirova, F.Sh. (2020). Linguistic and cultural characteristics of terms related to visual arts and design in English and Uzbek languages. *PhD thes. philol. scien.* Tashkent.
13. Kandelaki, T.L. (1977). *Semantics and motivation of terms*. Moscow: Science.
14. Kapanadze, L.A. (1965). On the concepts of 'term' and 'terminology'. In *Development of the vocabulary of the modern Russian language*. Moscow: Science.
15. Katermina, V.V. (2004). Representation of the national and cultural specificity of the image of a person in the nomination system of the twentieth century (on the material of Russian and English languages). *Dis. abs. doc. philol. scien.* Rostov.
16. Khairutdinov, D.R. (2009). Geographic terminology: Arabic, Russian, English parallels. *Dis. cand. philol. scien.* Kazan.
17. Khaydarova, S.A. (2016). Comparative analysis of formal models of terminological phrases in English and Tajik languages. *Dis. abs. cand. philol. scien.* Dushanbe.
18. Klimovitskiy, Y.A. (1969). Some methodological issues of work on the terminology of science and technology. In *Modern problems of terminology of science and technology*. Moscow: Science.
19. Kolshansky, G.V. (1976). Some questions of language semantics in the epistemological aspect. In *Principles and methods of semantic research*. Moscow: Science.
20. Kosykh, I.A. (2016). *Russian onomasiology*. Barnaul.
21. Kubryakova, I.S. (2004). Language and knowledge: on the way to gaining knowledge about language: parts of speech from a cognitive point of view. In *The role of language in the knowledge of the world*. Moscow.
22. Kurgalina, M.V. (2015). Secondary attributive means of nomination of the feature 'sound intensity' in English. *Dis. cand. philol. scien.* Voronezh.
23. Laenko, L.V. (2005). *Perceptual sign as an object of nomination*. Voronezh.
24. Leichik, V.M. (1989). Subject, methods and structure of terminology. *DSc thes. philol. scien.* Moscow.
25. Lemov, A.V. (2000). *System, structure and functioning of a scientific term (based on Russian linguistic terminology)*. Saransk.
26. Moiseev, A.I. (1970). On the linguistic nature of the term. In *Linguistic problems of scientific and technical terminology*. Moscow: Science.

27. *National encyclopedia of Uzbekistan*. (2004). Tashkent: 'National Encyclopedia of Uzbekistan' State Scientific Publishing House.
28. Paluanova, Kh.D. (2016). Derivative-semantic principles of environmental terms in English, Uzbek, Russian and Karakalpak languages. *DSc thes. philol. scien.* Tashkent.
29. Reformatskiy, A.A. (1961). What is term and terminology? Materials of the All-Union Terminological Conference '*Questions of Terminology*'. Moscow.
30. Reformatskiy, A.A. (1968). The term as a member of the lexical system. In *Questions of structural linguistics*. Moscow.
31. Sergevnina, V.M. (1978). The principle of system analysis of terms. In *Term and word*. Gorky.
32. Sudovtsev, V.A. (1989). *Scientific and technical information and translation*. Moscow: Higher School.
33. Superanskaya, A.V., Podolskaya, N.V., Vasileva, N.V. (1989). *General terminology: questions of theory*. Moscow: Science.
34. Tajiev, D.T. (1955). *Ways of linking the definition with the defined in the modern literary Tajik language*. Stalinabad.
35. Teliya, V.N. (1977). Secondary nomination and its types. In *Language nomination: types of names*. Moscow: Science.
36. Teliya, V.N. (1998). Nomination. In *Big Encyclopedic Dictionary: linguistic knowledge*. Moscow.
37. Vinogradov, V.V. (1961). *Questions of terminology*. Moscow.
38. Vinokur, G.O. (1939). *On some phenomena of word formation in Russian technical terminology*. Moscow.
39. Volodina, M.N. (1997). *Theory of terminological nomination*. Moscow.
40. Zolyan, L.K. (2018). To the question of terminological nomination. *Academic Notes*, 217-200.